

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT  
SAN'AT VA MADANIYAT INSTITUTI

"Kiritdi"

O'zbekiston davlat  
san'at va madaniyat  
instituti rektori

N.B.Sayfullayev

"01 06 2024-y

"Kelishildi"

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lif, fan va  
innovatsiyalar vazirligi



"01 06 2024-y

"Tasdiqlayman"

O'zbekiston Respublikasi  
Madaniyat vazirligi



"01 06 2024-y

KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI  
VA BAHOLASH MEZONI

60211100 – Aktyorlik san'ati: qo'g'irchoq teatri aktyorligi  
ta'lif yo'nalishi uchun

- Aktyorlik mahorati fanidan
- Qo'g'irchoq boshqarish asoslari fanidan

Dastur O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti Badiiy, o‘quv - uslubiy kengashida ko‘rib chiqilgan va ma’qullangan. 2024-yil \_\_\_\_\_  
— - sonli majlis bayoni.

### **Tuzuvchilar:**

- |            |   |
|------------|---|
| L.Usmanova | – O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasи mudiri v.b., katta o‘qituvchi                                  |
| M.Ashurova | – O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasи professori, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi |

### **Taqrizchilar:**

- |            |   |
|------------|---|
| X.Axunov   | – O‘zbek Milliy qo‘g‘irchoq teatri direktori, kadrlar buyurtmachisi |
| V.Yusupova | – O‘zDSMI “Qo‘g‘irchoq teatri san’ati” kafedrasи dotsenti           |

## **Kirish**

60211100 – Aktyorlik san’ati: qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga o‘qishga kiruvchi abituriyentlarning kirish kasbiy (ijodiy) imtihonlari “O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurtlariga qabul qilish qoidalari”ga muvofiq o‘tkaziladi.

Ixtisoslik bo‘yicha kirish imtihonlar, har bir ixtisos uchun ta’kidlangan qabul talablariga muvofiq ravishda o‘tkaziladi.

Ixtisoslik bo‘yicha imtihon o‘tkazilishining ketma-ketligi, har bir oliy o‘quv yurtining qabul komissiyasi tomonidan o‘rnataladi va har yili qabul qilish qoidalari ko‘rsatiladi.

60211100 – Aktyorlik san’ati: qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar ijodkorlik, ijrochilik, tashkilotchilik, san’at va madaniyat yo‘nalishida fikrlay olish qobiliyatiga, asar tanlashda zaruriy jihatlarni bilish, tushunish, his qilish iqtidoriga ijroga ega bo‘lishi kerak.

## **Fanlarning maqsadi va vazifalari**

60211100 – Aktyorlik san’ati: qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga da’vogar abituriyentlarning kasbiy (ijodiy) imtihonlar orqali teatr san’atining asosi hisoblangan aktyorlik mahorati, qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari, sahna nutqi, vokal va raqs fanlaridan iqtidorini, amaliy ko‘nikma va malakalarini aniqlash maqsadida o‘tkaziladi.

Fanning vazifasi – abituriyentlarni mazkur soha bo‘yicha zamonaviy ta’lim metodlari orqali sinash, rol konsepsiyasini, uning ijro etayotgan materialidan janr, xarakter, ifodaviy vositalardan foydalanayotganligini aniqlashdan iborat.

Abituriyentlar ixtisoslikning quyidagi asosiy fanlaridan amaliy-ijodiy ishlardan qo‘g‘irchoq teatri aktyorligiga oid ijodiy ishlarni bajaradilar:

## **Aktyorlik mahorati fani bo‘yicha**

60211100 – Aktyorlik san’ati: qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga da’vogar abituriyent Aktyorlik mahorati fani bo‘yicha imtihonlarda, turli xil janrdagi adabiy asarlarni ijro qilishi kerak, she’r, masal, qisqa hikoyalar, prozaik asardan hajviy parcha, monolog o‘qish talab etiladi. Bu o‘rinda klassik, zamonaviy, milliy va chet el bolalar adabiyoti namunalaridan ko‘rsatilishi maqsadga muvofiqli.

Qo‘sinq, murakkab bo‘lmagan raqs harakatlari bilan birga qo‘silib ijro qilinishi mumkin. Sahnaviy nutq, kuylash, sahnaviy harakat, raqs va boshqalar jonli tarzda bajariladi.

Abituryent bu bosqichda quyidagi dasturlarni tayyorlashi lozim:

- 1) masal (I.V.Krilov, S.Mixalkov, M.Xudoyqulov, A.Obidjon va x.k.)

- 2) monolog (biror-bir pyesadan qahramon monologi)
- 3) she'r
- 4) qo'shiq
- 5) raqs
- 6) hayvonot olami (hayvonot xulq atvori) – kuzatishlar asosida etyud
- 7) yakka etyud – (abituriyentning yakka o'zi bilan sahnada sodir bo'layotgan so'zsiz voqeа ko'rinish).

Bundan tashqari abituriyent qiziqqan sohasi yoki janri bo'yicha o'zining tayyorlab kelgan mustaqil nomerini ham namoyish etishi mumkin. Masalan:

- 1) plastika
- 2) pantomima
- 3) buyumlar jonlanishi – etyud
- 4) parodiya (taqlid san'ati)
- 5) musiqa san'ati

### **Qo'g'irchoq boshqarish asoslari fani bo'yicha**

Qo'g'irchoq boshqarish asoslari fani bo'yicha imtihonlarda, mutaxassis pedagoglar tomonidan qo'g'irchoq boshqarish, unga mos ovoz topish va nutqining ravonligi tekshiruvi amaliy tarzda o'tkaziladi. Sodda qo'g'irchoq turlari (qo'lqopli, simli) bilan harakatlarining maqsadli, aniq bajarishga bo'lgan intilishiga qaratiladi. Shuning barobarida tanlangan qo'g'irchoqqa mos xarakterli ovoz topa bilish mahoratiga, turli o'ziga xos topilmalariga ahamiyat qaratiladi. Shuningdek, tayyorgarlik holati munosabati qo'g'irchoqning boshqa turlaridan (planshet) foydalanishga ruxsat beriladi.

### **Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar**

**Aktyorlik mahorati** fanidan imtihonda ijro qilinayotgan asarni tubdan tushunish, eshitayotganlarni qiziqtirish, o'ziga jalb qila olish, ijrochining avvalo o'zi voqelikni tasavvur qila bilishi, so'ng atrofdagilarni tasavvur qilishiga, kuzatuvchanligi, ta'sirchanlik va ehtirosi, obrazli fikr yuritish qobiliyati tekshiriladi. Shuningdek, badiiy so'z ijrochiligi mahoratini: talaffuz tozaligi, ravon, burro, aniq (nutq a'zolaridagi organik va noorganik kamchiliklar yo'q) bo'lishi; biron bir materialni jarangdor va sog'lom ovoz bilan namoyish etish imkoniyatiga ega bo'lishi; nutqiy eshitish qobiliyati mavjud bo'lib, nutqiy ifodaviylik va ta'sirchanlikka ega bo'lishi; badiiy va she'riy asarlarda tasavvur mavjud bo'lish (mutolaa qilish savodxonligi) kerak.

**Qo'g'irchoq boshqarish asoslari** fani bo'yicha qo'g'irchoq boshqarish san'ati bilan bog'liq amaliy qism – bunda maxsus qo'g'irchoqlar bilan jihozlangan xonada abituriyentlar ixtiyoriy qo'g'irchoq turi bilan o'zi tayyorlab kelgan yoki komissiya tomonidan berilgan vazifa, etyud – amaliy ish topshiradi. Qo'g'irchoq

boshqarish va ovozlashtirish jarayonida o‘zaro mutanosibligi, ayniqsa abituriyentni qo‘g‘irchoqni his qilishi muhimlik kasb etadi.

Nazariy bilimi, suhbat jarayonida soha yuzasidan bilim doirasi tekshiriladi. O‘qishga da‘vogar shaxsni ijodiy maylini aniqlashga, davlatimizning ichki va tashqi siyosati borasidagi bilimlarini to‘g‘ri baholashga, madaniyat va san’at sohasidagi izchil ijobiy o‘zgarishlarga, badiiy va sohaga oid adabiyotlar yuzasidan mutolaa madaniyati darajasi, teatr va kino san’ati bo‘yicha asosiy savollarga to‘g‘ri oriyentatsiya qila olishini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

**Kasbiy (ijodiy) imtihonda abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:**

**Aktyorlik mahorati fani bo‘yicha**

<b>Nº</b>	<b>Talabning mazmuni</b>	<b>Maksimal ball</b>
1.	Tashqi ko‘rinish; jismonan nuqson sizligi (qaddi-qomat) sohaning xususiyatini inobatga olib bo‘yi 155-175 smdan oshmasligi talab etiladi	7
2.	Ijro uslubi va mahorati (she‘r, monolog, masal, etyud-hayotdan lavha) ijrosi. Tanlangan manba xususiyatga mos bolalar adabiyoti asosida bo‘lishi shart	31
3.	Idrok (mantiqiy mulohaza)	5
4.	Fantaziya, obrazli fikrlash (tasavvur)	5
5.	Xatti-harakatidagi tabiiyligi; Tana holati, plastik imkoniyatlari	5
6.	Erkin mavzuda raqs; musiqani his qilishi (tempo-ritm)	10
7.	Vokal asarlari ijro jarayonida ovoz tembri, diapazoni, eshitish qobiliyati	10
8.	Talaffuzda nutq a’zolaridagi organik va noorganik kamchiliklarning yo‘qligi, sog‘lomligi va jarangdorligi	10
9.	Nutqiy ifodaviylikda talaffuzning tozaligi, ravonligi, burroligi, aniqligi (nutqiy eshitish qobiliyatining mavjudligi)	5
10.	Badiiy so‘z ijrochiligi mahorati. Ijrosida tabiiylik va ta’sirchanlik darajalari, she’riy asarlardagi tasavvurning mavjudligi	5
<b>Jami:</b>		<b>93</b>

## Qo‘g‘irchoq boshqarish asoslari fani bo‘yicha

<b>Nº</b>	<b>Talabning mazmuni</b>	<b>Maksimal ball</b>
1	Har-xil turdag'i va konstruksiyali (qo‘lqopli, simli va planshet) qo‘g‘irchoqlarda etyud bajarish	20
2	Qo‘g‘irchoqni boshqarishda harakat va ovoz uyg‘unligini his etish darajasi	5
3	Qo‘g‘irchoqni his qilish; musiqa ritmi va shovqinni baholash, mos harakatlar topish	5
4	Qo‘g‘irchoq teatri san’ati to‘g‘sidagi tushunchasi (tarixi, turlari hamda asoschilari) ma’lumotga egaligi	8
5	Qo‘l plastikasi imkoniyatlari	5
6	Improvizatsiyaga moyilligi	5
7	Jahon va o‘zbek adabiyotidan xabardorligi, mutolaa madaniyati.	5
8	Ijtimoiy bilimlar darajasi; Jamiyatda bo‘layotgan islohotlardan xabardorligi (adabiyot, san’at va madaniyat hamda ta’limdagi yangiliklar) bilimi e’tiborga olinadi.	5
9	Dunyo qarashi, ma’naviy-axloqiy xislatlari, san’at va madaniyat haqidagi tushunchasi.	5
<b>Jami:</b>		<b>63</b>

### Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o‘tkazish tartibi

60211100 – Aktyorlik san’ati: qo‘g‘irchoq teatr aktyorligi bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda, belgilangan vaqt davomida ijodiy imtihonni topshiradi. Qabul hay’ati tomonidan shakllantirilgan guruhlardan iborat bo‘lib, ijodiy imtihon guruhlari bo‘yicha belgilangan kun va vaqtida o‘tkaziladi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar maxsus qurollar bilan jihozlangan auditoriyalarda bo‘lib o‘tadi.

Kasbiy (ijodiy) imtihon raisi, aktyorlik mahorati, sahna nutqi, vokal hamda raqs mutaxassislarining tekshiruvi asosida o‘tkaziladi. Ijro etiladigan asarlar bir-biridan janr va mazmuni bo‘yicha ajralib turishi kerak, bu abituriyentning qobiliyatini va ijodiy imkoniyati aniqlashda muhimlik kasb etadi.

### Apellatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari bo‘yicha institut qabul komissiyasining appellatsiyalar bilan ishslash ha’yatiga natijalar e’lon qilingandan kundan boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat o‘zining ballari haqida bo‘lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

## **Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbalari**

1. Madaniyat va san'at atamalarining izohli lug'ati. B.S.Sayfullayev tahriri ostida.  
– Toshkent: "G'ofur G'ulom" nashriyoti, 2015.
2. Mahmudov J. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: "Bilim" nashriyoti, 2005.
3. Qodirov M.X. Tomosha san'ati o'tmishidan lavhalar. – Toshkent: "Fan" nashriyoti, 1991.
4. Ashurova M.H. Aktyorlik mahorati. Darslik. – Toshkent: "Innovatsion-Ziyo" nashriyoti, 2021.
5. Ashurova M.H., Abduxalilov A.A. Aktyorlik mahorati. 2-kurs Qo'g'irchoq teatri aktyorligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Fan va ta'lim" poligraf MCHJ nashriyoti, 2021.
6. Ashurova M.H. Mehrdan yaralgan olam. Professional qo'g'irchoq teatrlari uchun pyesalar to'plami. – Toshkent: "Zamon" poligraf OK nashriyoti, 2021.
7. Abduxalilov A.A. Qo'g'irchoq teatri rejissyorligi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: "Innovatsion-Ziyo" nashriyoti,, 2020.
8. Юсупова В.И. Кукловождение. Работа с перчаточной куклой. О'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innovatsion-Ziyo" nashriyoti, 2020.
9. Qurbonov A. Qo'g'irchoq teatri rejissyorligi. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innovatsion-Ziyo" nashriyoti, 2020.
10. Sundukova V.N., Ahmedova Z.A. K.S.Stanislavskiy sistemasi atama va unsurlari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: nashriyoti yo'q, 2012.
11. K.S.Stanislavskiy Aktyor o'z ustida ishlashi. O'quv qo'llanma. T.Xo'jayev tarjimasi, – Toshkent: nashriyoti yo'q, 2010
12. Abdullaev D.D., Usmanova L.Dj. Qo'g'irchoq boshqarish asoslari. Qo'g'irchoq teatrida simli qo'g'irchoq. O'quv qo'llanma. – Toshkent: "Innovatsion-Ziyo" nashriyoti, 2020.
13. Abduxalilov A.A., Mamatqulov B.M. Qo'g'irchoq yasash texnologiyasi. O'quv qo'llanma. – Qo'qon: "ART Press" nashriyoti, 2022.
14. Mamatqulov B.M. Qo'g'irchoq mexanikasi va konstruksiyasi. O'quv qo'llanma. – Qo'qon: "ART Press" nashriyoti, 2022.